

LEARNING PHRASES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Farangiz Qosimjonova

PhD student

Termiz State University

[*farangizkasimzanova@gmail.com*](mailto:farangizkasimzanova@gmail.com)

Abstract: *This article describes the general essence of the expressions and their specific features in the Uzbek and English languages. Also, common and similar aspects of phraseologies in both languages are shown based on examples.*

Keywords: *Phraseology, phraseological units, phraseologism, semantics, phrasemes, phraseomatic units.*

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IBORALARNING O‘RGANILISHI

Farangiz Qosimjonova

Termiz davlat universiteti o‘zbek tili ixtisosligi

1-bosqich tayanch doktoranti

[*farangizkasimzanova@gmail.com*](mailto:farangizkasimzanova@gmail.com)

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida iboralarning umumiy mohiyati va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ifodalangan. Shuningdek, iboralarning har ikki tildagi o‘zaro umumiy va farqli jihatlari misollar bilan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Frazeologiya, iboralar, frazeologizm, semantika, frazalar, frazeologik birliklar.*

Ma'lumki, jahon tilshunosligida frazeologizmlar dunyo xalqlarining tili, tarixi, o'tmish turmush tarzi, o'y-xayollari, milliy-madaniy hayoti hamda urf-odat va an'analari kabi o'ziga xosligining universal va differensial holatlarini ifodalovchi vositalar sifatida alohida e'tirof etib kelinadi. Har bir til o'zining frazeologik birliklariga ega. Iboralar esa o'zi mansub bo'lgan tilning lug'at sostavini, frazeologik boyligini ifodalovchi vositalardan biri o'laroq, nutq ta'sirchanligini oshirishga, nutqning ifodali bo'lishiga va emotsionallikni ta'minlashga xizmat qiladi va ayni shu jihati bilan boshqa til birliklaridan alohidalikni kasb etadi. Yillar davomida iboralarning shoir-u yozuvchilar,

mashhur soʻz ustalari tomonidan bebaho boylik sifatida foydalanib, oʻrinli qoʻllashga alohida eʼtibor berib kelinayotganligi bejizga emas.

Umuman, oʻzbek tilshunosligida iboralarga bir qancha taʼriflar berilgan. “Tuzilishi jihatidan soʻz birikmasi yoki gapga teng, umumlashgan maʼno anglatuvchi, komponentlari qisman yoki toʻlasincha koʻchma maʼno ifodalovchi turgʻun leksik-semantik birliklar” [1;29]; “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilish jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan soʻzga ekvivalent, yaxlitligicha koʻchma maʼno anglatuvchi lugʻaviy birlikka ibora deyiladi”[2;38] Iboralar uchun emotsional-ekspressiv boʻyoqdorlik xususiyati oʻziga xos ajralmas jihat hisoblanadi.

Odatda, frazeologizmlar shaxs tushunchasi bilan bogʻlanib, insonlarning ruhiy-aqliy hamda fiziologik holati, feʼl-atvori, hatti-harakatlarini ifodalaydi. Shunga koʻra tilshunoslikda iboralar shaxs faoliyati va ruhiyati bilan bogʻliq frazeologizmlar, hayvonlar obrazi asosida shakllangan frazeologizmlar hamda diniy tushunchalar doirasida shakllangan frazeologizmlar kabi turlarga boʻlinadi. Oʻz navbatida ushbu guruhlar ham oʻzaro ichki guruhlarga ajratiladi:

1. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bogʻliqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar;
2. Pazandachilik doirasida shakllangan frazeologizmlar;
3. Tibbiyot doirasida shakllangan frazeologizmlar;
4. Dehqonchilik doirasida shakllangan frazeologizmlar;
5. Chorvachilik doirasida shakllangan frazeologizmlar;
6. Kasb-kor doirasida shakllangan frazeologizmlar;
7. Maktab-maorif doirasida shakllangan iboralar;
8. Musiqachilik doirasida shakllangan frazeologizmlar[3;25]

Frazeologiya tarixiga nazar tashlasak, uning fan sifatida shakllanishi fransuz olimi Sh.Balli nomi bilan bogʻliqligiga amin boʻlamiz. Shuningdek, frazeologiyaning tilshunoslikning mustaqil ilmiy sohasi sifatida shakllanishida fransuz olimlari P.Giro, A.Rey hamda rus olimlari V.V.Vinogradov, V.L.Arxangelskiy, A.V.Kunin, A.D.Rayxshteyn, N.Chernishevalar ham oʻz hissasini qoʻshishgan. Imiy adabiyotlarda oʻzbek frazeologiyasining jonkuyar

tadqiqotchilari sifatida Sh.Rahmatullayev, H.Berdiyev, M.Umarxo‘jayev, M.Sodiqova, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshevlar tilga olinadi. Darhaqiqat, Sh.Rahmatullayev o‘zbek tilshunosligida o‘z frazeologik maktabiga asos solgan olim hisoblanadi. Olim o‘zining “Nutqimiz ko‘rki”, “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi” kabi ilmiy asarlari bilan frazeologiya rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. O‘zbek tilshunosligida iboralarning lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan qator ishlar amalga oshirilgan, xususan, iboralarning semantik, stilistik, struktural-grammatik, qiyosiy-tipologik hamda etimologik tadqiqi Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari”, I.Qo‘chqortoyevning “Abdulla Qahhorning frazeologik novatorligi”, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi, B.Yo‘ldoshevning “Frazeologik uslubiyat asoslari”, A.Mamatovning “O‘zbek tili frazeologizmalarining shakllanish masalalari” singari asarlarida aks ettirilgan. Bu borada Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” o‘zbek tili frazeologizmlarini tahlil qilish, o‘rganish va yig‘ishda dastlabki qadamlardan bo‘ldi. Shundan so‘ng B.Mengliyev hamda M.Xudoyberdiyevlar hammuallifligida “O‘zbek tili iboralari o‘quv lug‘ati”(maktab o‘quvchilari uchun) ham ishlab chiqildi.

Har bir tilda mavjud frazeologik birliklar, xususan, iboralar ham olamning lisoniy, yoxud milliy o‘ziga xos lisoniy manzarasini ifodalashda ishtirok etadi. Bir-biridan ijtimoiy-madaniy jihatdan tamomila farq qiluvchi Sharq va G‘arb madaniy-ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi iboralarni tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini ta‘minlaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi iboralarning milliy-madaniy, strukturaviy va komponentlik xususiyatlarini o‘rganib chiqishda ham qator o‘ziga xosliklar, umumiy va farqlovchi jihatlar e‘tiborga olinadi.

Ingliz tilshunosligida L.P.Smit, A.Mackay, J.Seidlou kabi ingliz olimlari, shuningdek, A.V.Kunin, N.N.Amosovalarning tadqiqotlari ingliz frazeologiyasi muammolari yechimiga bag‘ishlangan. Ingliz tilida ham iboralar milliy ruh, madaniyat va hayot tarzining ifodalovchisi sifatida alohida e‘tirof etiladi. Ingliz

tilshunoslari frazeologik birliklarga olamning lingvistik tasvirini shakllantiruvchi vosita sifatida qarashadi. Iboralarni bilish va o'rganish xalq tarixi va turmush tarzini chuqurroq o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Dastavval, ingliz frazeologiyasi masalalari asosan, grammatika, stilistika, leksikografiya, til tarixi kabi sohaviy doiralarda o'rganilgan. Keyinchalik, frazeologiya bevosita leksikologiyaning bir tarmog'i sifatida tahlil qilindi. Tilshunoslikda zamonaviy yo'nalishlarning vujudga kelishi bilan frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida qabul qilindi va kompyuter lingvistikasi yutuqlari tilshunoslikning bu tarmog'ini ham o'z qamroviga ola boshladi.

Darhaqiqat, o'zbek va ingliz tillarida ham iboralar o'zaro ma'nodosh va qarama-qarshi ma'nolarga ega bo'lish xususiyatiga ega. Ya'ni ingliz tilida ham o'zbek tilida bo'lgani kabi bir paytning o'zida qo'rquv, shodlik, xursandchilik, azoblanish, hayrat- taajub kabi emotsional holatlarni ifodalashga xizmat qiluvchi bir qancha sinonim iboralar mavjud . Masalan, “miserable as bandicoot”, “over a barrel”, “ like a bastard” kabi frazeologik birliklar dard-u alam, hafagarchilik kabi emotsional ma'noga ega bo'lsa, “have a ball”, “full of beans” frazeologik birliklari quvonch, sevinish emotsional bo'yog'iga ega.

Quyida bir xil mazmun-mohiyatga ega bo'lgan va o'zbek tiliga tarjimon yordamisiz ham osonlik bilan tarjima qilinishi mumkin bo'lgan iboralarga misollar keltiramiz:

“Adding fuel to the fire” - *olovga yog' sepmoq* (vaziyatni yanada chigallashtirmoq; atay urushtirmoq); Bite one's nails- *tirnog'ini tishlamoq*(asabiylashmoq, havotirlanmoq, hayajonlanmoq); On the tip of my tongue- *tilimning uchida turibdi*; *When pigs fly* – “*cho'chqalar uchganda*” deb tarjima qilinadi. Bu ibora o'zbek tilidagi “*tuyaning dumi yerga tekkanda*” iborasi bilan ma'nodoshdir.; *Kill two birds with one stone* – “*Bir o'q bilan ikki qushni/quyonni urmoq*”(ayni bir vaqtda ikki narsani o'ylab ish tutmoq va uddasidan chiqmoq); Giving a helping hand – “yordam qo'lini cho'zmoq”.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalariga ko‘ra tilning boshqa birliklaridan farqlanadi. Shunga ko‘ra ular alohida leksik birlik o‘laroq o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘ladi. Har ikki tilda ham iboralar narsa-hodisalar, voqealar, shaxs faoliyati va xarakterini oddiy so‘z bilan emas, balkim obrazli-ekspressiv ifodalash, ehtiyoji asosida yuzaga keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev.B “Frazeologik uslubiyat asoslari”. – Samarqand: SamDU nashri, 1999.
2. Rahmatullayev.Sh.”Nutqimiz ko‘rki” .- Toshkent. Fan-1970.
3. Mamatov A.E “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari”. Dokt.diss.avto-ref.- T.2000.
4. Rahmatullayev Sh. “O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi”. “Universitet”-1992.
5. Yo‘ldoshev B. “O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti” – Samarqand. 2007.
6. Amosova N.N Fundamentals of English phraseology. –L;LGU,1963.